**«TASDIQLAYMAN»**
**"Biznesni rivojlantirish banki" ATB**
**Strategiya bosh direktori:**
**B.Raxmatov**

**«3» aprel 2026 y.**
**№ 96**

## «Afrosiyob» tezyurar poyezdida reklama-axborot materiallarini joylashtirish bo'yicha texnik topshiriq

| № | Nomi | Talab |
|---|---|---|
| 1 | Buyurtmachi | "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB |
| 2 | Buyurtmachi manzili | Toshkent shahar, Alisher Navoiy ko'chasi 18A-uy, 100011 |
| 3 | Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi | «Afrosiyob» tezyurar poyezdida reklama-axborot materiallarini joylashtirish bo'yicha ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ) |
| 4 | Moliyalashtirish manbai | Bankning o'z mablag'lari |
| 5 | Xarid predmeti batafsil tarkibi | «Afrosiyob» tezyurar poyezdida stol usti yuzalariga reklama materiallarini (stikerlarni) joylashtirish bo'yicha ma'lumot<br>«Afrosiyob» tezyurar poyezdi, Toshkent – Buxoro – Toshkent yo'nalishi (har kuni qatnov).<br>Joylashtirish muddati: birinchi foto hisobot taqdim etilgan kundan boshlab **6 oy davomida.**<br>Joylashtirish hajmi:<br>Poyezdlar soni -1 ta;<br>Reklama joylari soni - 204 ta;<br>Joylashtirish turi - stol ustiga stikerlar;<br>Vagonlar - barcha (Biznes va Ekonom).<br>Materiallarga qo'yiladigan talablar<br>Turi: o'z-o'zidan yopishuvchi stikerlar;<br>Joylashuvi: yo'lovchi o'rindiqlari stol usti yuzalarida;<br>Dizayn Buyurtmachi tomonidan chop etishga tayyor formatda taqdim etiladi.<br>Materiali: ishqalanishga chidamli, kirni kam oladigan va stol yuzasiga zarar yetkazmaydigan bo'lishi kerak.<br>Ijrochi quyidagi ishlarni bajarishi shart:<br>• reklama materiallarini chop etish; |

| | | |
|---|---|---|
| | | • stikerlarni barcha vagonlarda oʻrnatish;<br>• 204 ta reklama joyini toʻliq qamrab olish.<br>Maketlarni “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ bilan 3–5 ish kuni ichida kelishish. Joylashtirilgan materiallar holatini doimiy nazorat qilish. Har oy 1 marta foto hisobot taqdim etish.<br>Joylashtirish shartlari:<br>-belgilangan muddat davomida uzluksiz joylashtirilishi lozim;<br>-foydalanish jarayonida shikastlangan, yaroqsiz holga kelgan yoki koʻchib qolgan materiallar Ijrochi tomonidan oʻz hisobidan almashtiriladi;<br>-foydalaniladigan materiallar tashuvchi tashkilotning talab va me’yorlariga toʻliq mos boʻlishi kerak. |
| 6 | Yetkazib berish shartlari | Yetkazib berish muddati - shartnoma imzolangan kundan boshlab 180 kalendar kun davomida. Xizmatni yetkazib berish shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kalendar kun ichida boshlanishi lozim. |
| 7 | Toʻlov shartlari | Tomonlar shartnoma imzolagan kundan boshlab 5 bank kuni ichida shartnomaning miqdorining 50 foiz miqdorida oldindan toʻlov amalga oshiriladi. Shartnomaning 50 foiz miqdori buyurtmachi tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 bank kuni ichida toʻlab boriladi. |
| 8 | Shartnomaning amal qilish muddati | Shartnoma shartlari toʻliq bajargunga qadar |
| 7 | Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish | Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar topshirish-qabul qilish dalolatnomalari taqdim etilib, ikki tomonlama imzolangan paytdan bajarilgan hisoblanadi. |
| 8 | Ishtirokchilaming tashkilotchi bilan bogʻlanish uchun aloqa telefonlari | (78) 150-93-39 (ichki 267) Ganiyeva F. |

kelishuvchilar: S.Niyazov

*https://hujjat.brb.uz/?pin=pB67kM77&id=9e81c7bc-2dc2-4ee6-a8b7-78bee9398077*